



**TURKIZMLARNING INGLIZ TILIGA KIRIB KELISHI: SKEAT
LUG‘ATI TAHLILI ASOSIDA**

Etimologik Yondashuv

Charos Ismoilova Shuhrat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

NTM Samarqand kampusi

ingliz tili o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Charosismoilova180@gmail.com

Annotatsiya: Lug‘atchilik (leksikografiya) — bu til birliklarini tizimli tartibga solish, ularning shakl, ma’no, kelib chiqish, qo‘llanilish doirasini aniqlash va belgilash bilan shug‘ullanuvchi mustaqil tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Lug‘atchilik nafaqat zamonaviy lug‘aviy birliklarni, balki tarixiy o‘zgarishlarni, ya’ni etimologik qatlamlarni ham o‘rganadi. Ayniqsa, loanwords (o‘zlashgan so‘zlar) fenomeni orqali bir tilning boshqa tillar bilan qanday madaniy va sivilizatsion aloqada bo‘lganini tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu jarayonda turk tillaridan ingliz tiliga kirib kelgan so‘zlar — turkizmlar — alohida e’tiborga loyiq. Ularning ingliz tilidagi mavjudligi o‘z-o‘zidan qiziqarli tilshunoslik hodisasi bo‘lib, ko‘pincha arabcha, forsha, ruscha, hindcha va fransuzcha vositali tillar orqali o‘zlashtirilgan. Bunday ko‘p zanjirli etimologik yo‘llar turkizmlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan o‘zgarishlariga olib kelgan. Quyidagi maqolada Walter William Skeat tomonidan tuzilgan "A Concise Etymological Dictionary of the English Language" (1882–1911) lug‘ati bu borada muhim tarixiy manba ekanligi va ushbu lug‘atda ko‘plab so‘zlarning etimologiyasi orqali ingliz tili lug‘aviy boyliklarining qanchalik ko‘p tillar bilan kesishgani aniqlanadi. Mazkur asarda kamida 35–40 atrofida turkizmlar qayd etilgan bo‘lib, ular asosan harbiy (e.g. janissary), madaniy (e.g. divan), gastronomik (e.g. yogurt, pilaf) va boshqa semantik sohalarga tegishli turkizmlar tahlilili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Lug‘atchilik (leksikografiya), loanwords (o‘zlashgan so‘zlar), turkizmlar.

Kirish. Bugungi global lingvistikada loanwordsni tahlil qilish — tilning tarixi, kuch o‘zgarishlari, savdo-madaniy aloqalari, mustamlaka tizimlari va sivilizatsion o‘zaro ta’sirlarini o‘rganishda asosiy usullardan biridir. Shunday qilib, lug‘atchilik orqali loanwordlar, xususan turkizmlarning til tizimidagi funksional rolini aniqlash, tarixiy tilshunoslikning markaziy masalalaridan biriga aylanmoqda.

Ingliz tili tarix davomida ko‘plab boshqa tillardan so‘zlar olib, boyib



borgan bo'lsa-da, bu so'zlarning aksariyati lotin, yunon, fransuz, nemis kabi yevropa tillaridan olinganligi e'tiborni tortadi. Shunga qaramay, kam o'rganilgan, ammo muhim manbalardan biri bu Turkik tillardan olingan so'zlardir. Ushbu maqolada Walter William Skeat tomonidan yaratilgan "A Concise Etymological Dictionary of the English Language" (1882–1911) asosida 35-40 ga yaqin turkizmlarning ingliz tiliga kirib kelish yo'llari tahlil qilinadi. Mazkur lug'at o'z davrining etimologik izlanishlarida yetakchi o'rin tutgan bo'lib, ingliz leksikografiyasida o'chmas iz qoldirgan. Asarda so'zlarning kelib chiqish tarixi, fonetik o'zgarishlari va vositali yoki vositasiz tarzda boshqa tillar orqali ingliz tiliga o'tish jarayonlari ko'rsatib berilgan.

Metodologiya. Tadqiqot asosida Clarendon Press tomonidan 1882–1911-yillarda nashr etilgan Skeat lug'atining bosma nashrlari (1882, 1890, 1893, 1897, 1901 va 1911-yilgi "New and corrected impression") tahlil qilindi. So'zlar alifbo tartibida ko'rib chiqilib, turkik tillardan olingan so'zlar (loanwords) aniqlanib, ularning:

vositali (masalan, arabcha yoki ruscha orqali) va
vositasiz (to'g'ridan-to'g'ri turkik tillardan) o'zlashtirilganlik holatlari etimologik asosda tekshirildi. Qolaversa, har bir so'zning etimologik izohi, fonetik o'zgarishi, tarixiy konteksti ham inobatga olindi.

Tahlil natijasida Skeat lug'atida kamida 38 ta turkizmlar aniqlanib, ularning 40% to'g'ridan-to'g'ri (direct) va 60% vositali (indirect) yo'llar bilan ingliz tiliga kirganligi ma'lum bo'ldi. Bu so'zlar quyidagi semantik guruhlariga bo'linadi:

Misollar Vosita

“Aga/Agha, Beg/Bey

Elchi Chibouk, Caftan “

to'g'ridan-to'g'ri (turk tilidan vositasiz ingliz tiliga o'zlashgan)

“Bogaty, Taiga, Urman, Yurt” Vositachi til: Rus

“Caviare, Fez Horde Ottoman” Vositachi til: Fransuz

“Tulip, Turban” Vositachi tillar: Fors Italian

Bu so'zlarning ko'pchiligi savdo, urush, madaniy aloqalar, sayohat va imperiyalararo siyosiy ta'sir natijasida ingliz tiliga singib ketgan va yuqorida ayrimlarini keltirildi.

Muhokamadan shunisi ma'lumki, Skeat lug'ati etimologik tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib, u ingliz tilining tashqi manbalar orqali qanday boyiganini ko'rsatadi. Turkizmlarning ingliz tiliga kirishi aksariyat hollarda arabcha, forsha, hindcha, fransuzcha, va ruscha orqali vositali bo'lgan. Bu holat ingliz tilining lingua franca sifatida shakllanishida ko'p tilli o'zaro ta'sirlar naqadar kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Qolaversa, Skeat asari bugungi kun leksikografiya va tarixiy tilshunoslik tadqiqotlarida asosiy manba bo'lib



xizmat qilmoqda. Bunday lugʻatlar orqali ingliz tilining global muloqot vositasi sifatida turli sivilizatsiyalar bilan qanday aloqada boʻlganini chuqur anglash mumkin. Lugʻatdagi har bir kirish – bir tarixiy til hodisasi hisoblanadi. Shuningdek, loanword tadqiqotlari bugungi global til siyosatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu maqola orqali koʻrinib turibdiki, Skeatning "A Concise Etymological Dictionary of the English Language" asari ingliz tilidagi turkizmlar miqdori va ularning kelib chiqish zanjirlarini koʻrsatishda beqiyos manba hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy nashrlari (1882–1911) asosida 35 dan ortiq turkizm aniqlanishi, bu lugʻat faqat ingliz tilining emas, balki global tillararo aloqalarning ham etimologik xaritasini chizib beradi. Bunday manbalarni oʻrganish orqali tilshunoslikdagi universal tushunchalarni qayta koʻrib chiqish mumkin.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.). Cambridge University Press. <https://www.cambridge.org>
2. Durkin, P. (2014). Borrowed words: A history of loanwords in English. Oxford University Press. <https://global.oup.com>
3. Hock, H. H., & Joseph, B. D. (2009). Language history, language change, and language relationship: An introduction to historical and comparative linguistics (2nd ed.). Mouton de Gruyter. <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/9783110219135>
4. Hasan, M. (2010). Turkic elements in English vocabulary: A historical and etymological study. *Journal of Historical Linguistics*, 12(3), 211–230.
5. Görlach, M. (2001). A dictionary of European anglicisms: A usage dictionary of anglicisms in sixteen European languages. Oxford University Press. <https://global.oup.com/academic/product/a-dictionary-of-european-anglicisms-9780199283064>
6. Skeat, W. W. (1911). A concise etymological dictionary of the English language (New and corrected impression). Clarendon Press. <https://archive.org/details/conciseetymologi00skeaiala>